

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/04.03.2022.Q.x.13.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDA TUZILGAN FALSAFA DOKTORI (PhD)
ILMIY DARAJASINI BERUVCHI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

TOSHPULATOV CHINGIZXON VALI O'G'LI

**O'RTACHA SHO'RLANGAN TUPROQLARDA JO'XORI
YETISHTIRISHDA SHO'R YUVISH MUDDATI VA SUG'ORISH
TARTIBLARINI ISHLAB CHIQISH (SIRDARYO VILOYATI MISOLIDA)**

06.01.02 – Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik

**QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYA AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2025

**Qishloq xo‘jaligi bo‘yicha falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
сельскохозяйственным наукам**

Content of the abstract of (PhD) doctoral dissertation on agricultural sciences

Toshpulatov Chingizxon Vali o‘g‘li

О‘rtacha sho‘rlangan tuproqlarda jo‘xori yetishtirishda sho‘r yuvish muddati
va sug‘orish tartiblarini ishlab chiqish (Sirdaryo viloyati misolida)..... 3

Тошпулатов Чингизхан Вали угли

Разработка сроков промывки и режима орошения сорго при
возделывании на среднесоленых почвах (на примере Сырдарьинской
области)..... 21

Toshpulatov Chingizkhon Vali ugli

Development of the influence of salt leaching time and irrigation scheduling
on the yield of corn in moderately saline soils (in the example of Syrdarya
region)..... 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 45

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/04.03.2022.Q.x.13.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDA TUZILGAN FALSAFA DOKTORI (PhD)
ILMIY DARAJASINI BERUVCHI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

TOSHPULATOV CHINGIZXON VALI O‘G‘LI

**O‘RTACHA SHO‘RLANGAN TUPROQLARDA JO‘XORI
YETISHTIRISHDA SHO‘R YUVISH MUDDATI VA SUG‘ORISH
TARTIBLARINI ISHLAB CHIQISH (SIRDARYO VILOYATI MISOLIDA)**

06.01.02 – Melioratsiya va sug‘orma dehqonchilik

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYA AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2025

Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Qx1177 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Toshkent davlat agrar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tdau.uz) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portali www.ziyonet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tuxtashev Botir Buriyevich

qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Suvanov Boymurod Uralovich

qishloq xo'jaligi fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Kamilov Baxtiyor Sultanovich

qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi DSc.05/04.03.2022. Qx.13.01 raqamli Ilmiy kengashining 2025-yil 16-sentabr soat 15⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100164, Toshkent, Universitet ko'chasi. 2-uy. Tel.: (+99871) 260-48-00; faks: (+99871) 260-38-60; e-mail: tuag-info@edu.uz; Toshkent davlat agrar universiteti Ma'muriy binosi, 1-qavat, majlislar zali.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat agrar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№554002 raqami bilan ro'yhatga olingan). Manzil: 100164, Toshkent, Universitet ko'chasi. 2-uy. Toshkent davlat agrar universiteti, Axborot-resurs markazi binosi. Tel: (+99871) 260-50-43.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 29-avgust kuni tarqatildi.

(2025-yil 29-avgustdagi 16-raqamli reyestr bayonnomasi.)



U.Norqulov

U.Norqulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik ilmiy kengash raisi, q.x.f.d., professor.

A.A.Qurbonov

A.A.Qurbonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, q.x.f.f.d., dotsent.

M.S.Raxmankulov

M.S.Raxmankulov

Bir martalik ilmiy kengash qoshidagi bir martalik ilmiy seminar raisi, q.x.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. So‘nggi yillarda dunyo bo‘yicha sho‘rlangan yerlar maydoni shiddat bilan ortib bormoqda. FAO ma‘lumotlari bo‘yicha sho‘rlangan maydonlar umumiy quruqlik maydonining qariyb 25 % ga yaqinini tashkil qiladi. Ushbu sho‘rlangan yerlar asosan, quruq iqlimli hududlar hisoblangan Janubiy Qozog‘iston, Markaziy Osiyo, Amerika Qo‘shma Shtatlarining g‘arbida, Janubiy Amerika, Avstraliya, Shimoliy Afrikada keng tarqalgan¹. Jo‘xori sho‘rga chidamli ekinlardan biri bo‘lib, dunyo bo‘yicha 85 ta mamlakatda qariyb 50 mln gektar maydonda yetishtirilmoqda va ekin maydoni bo‘yicha donli ekinlar orasida beshinchi o‘rinda turadi. Jo‘xori yetishtirish bo‘yicha Hindiston, Nigeriya, Sudan, AQSH yetakchilik qiladi². Sho‘rlangan tuproqlardan to‘g‘ri foydalanish va sho‘rga chidamli ekinlar hosildorligini oshirish masalasi o‘ta ahamiyatli hisoblanadi. Ayniqsa so‘nggi yillarda dunyo miqyosida iqlimni global o‘zgarishi hamda sho‘rlangan tuproqlar maydonini oshib borishi suv taqchilligi kuchayib borayotgan bir davrda jo‘xoridan yuqori va sifatli hosil olish uchun sho‘rlangan tuproqlarda uni yetishtirish va parvarish qilish bo‘yicha yuqori samara beradigan texnologiyalarni amaliyotga tadbiiq etish va yanada takomillashtirish masalasidagi ilmiy izlanishlar dolzarb hisoblanadi.

Bugungi kunda dunyoda iqlimni keskin o‘zgarishi havo haroratini ortib borishi, sho‘rlangan ekin maydonlarining kengayishi hamda suv manbalarining kamayib ketishi mintaqada qishloq xo‘jalik ekinlarini yetishtirishda ilmiy asoslangan va ishlab chiqarishda yuqori samara beradigan takomillashgan tizimni joriy etishni talab etmoqda. Jo‘xori sho‘rlangan yerlar sharoitida yaxshi o‘sib yuqori hosil berish imkoniyatiga ega bo‘lgan o‘simlik hisoblansada, qishloq xo‘jaligiga yangi texnologiyalar va navlarni kirib kelishi jarayonida bu sohada ko‘p izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, global iqlim o‘zgarishi va sho‘rlangan yerlardan to‘g‘ri foydalanishda sho‘rga bardoshli qishloq xo‘jaligi ekinlarini jumladan, jo‘xorini ekib parvarish qilish bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni³, 2020-yil 11-dekabrda PQ-4919-son “Qishloq xo‘jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada jadal tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori⁴ ijrosini ta‘minlash borasida qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirishda yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, suvdan foydalanish samaradorligini oshirish, bu boradagi ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish va ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy qilish hamda sho‘r yuvish ishlarini takomillashtirish o‘ta muhim vazifalardan hisoblanadi. Ushbu qo‘yilgan vazifalardan kelib chiqib, respublikada sho‘rlangan yerlardan to‘g‘ri foydalanish va qishloq xo‘jaligi ekinlarini parvarishlash texnologiyasini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar bugungi kun qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi va ilm-fanida g‘oyat ahamiyatlidir.

¹<http://fao/worldfoodsituation/csdb/ru>.

²<http://agro.uz/uz/services/useful/>

³ <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

⁴ <https://lex.uz/docs/-5157168>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi PF-6024-son “O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan Konsepsiyasi” to‘g‘risidagi farmoni⁵, 2022-yil 1-martdagi PQ-144-son “Qishloq xo‘jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”⁶gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotni respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Turli xil sho‘rlangan tuproqlar sharoitida tuzlarni ekinlarga salbiy ta‘sirini, tuproqning suv-fizik xossalari, o‘simliklarni o‘sishi, rivojlanishi, hosildorligiga va uning sifatiga salbiy ta‘sirni o‘rganish bo‘yicha xorijda E.Doggett, C.Ciacchi, L.Maiuri, B.Dayakar Rao, W.D.Clayton, S.A.Renovoize, De Wet, J.R.Harlan, L.Krzyzaniak, W.L.Rooney, R.D.Waniska hamda Respublikada sho‘rlangan tuproqlarning meliorativ holatini o‘rganish, ularni qiyosiy baholash, ushbu tuproqlarda turli xil ekinlarni ekish, hosildorlikni oshirish masalalari bo‘yicha A.E.Avliyakov, U.Norqulov., M.X.Xamidov, A.Axmedov, M.A.Yakubov, S.X.Isayev, M.A.Avliyakov, V.I.Legastayev, V.A.Duxovniy, A.B.Mambetnazarov kabi taniqli olimlar tomonidan keng qamrovli ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Shunga qaramasdan, Sirdaryo viloyatining sho‘rlangan tuproqlari sharoitida jo‘xori yetishtirishda maqbul sho‘r yuvish muddati va sug‘orish tartiblarini ishlab chiqish bo‘yicha yetarlicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat agrar universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liq bo‘lib, №A-QX-2019-12 raqamli «Sho‘rlangan tuproqlarda hosildorlikni oshiruvchi chidamli o‘simliklarni yetishtirish texnologiyasi (Sirdaryo viloyati sho‘rlangan tuproqlari misolida)» (2019-2021 yy) mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: O‘rtacha sho‘rlangan tuproqlar sharoitida sho‘r yuvish muddati va sug‘orish tartiblarini jo‘xorining o‘sishi, rivojlanishi va yashil massa hosildorligiga ta‘sirini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

o‘rtacha sho‘rlangan tuproqlarning suv-fizik va agrofizikaviy xossalari (tuproqning hajm massasi, g‘ovakligi, strukturasi va suv o‘tkazuvchanligi) aniqlash;

o‘rtacha sho‘rlangan tuproqlar sharoitida yetishtirilgan jo‘xorining maqbul sho‘r yuvish muddatini aniqlash;

o‘rtacha sho‘rlangan tuproqlar sharoitida yetishtirilgan jo‘xorining sug‘orish tartiblarini ishlab chiqish;

o‘rtacha sho‘rlangan tuproqlar sharoitida jo‘xorining o‘sishi, rivojlanishi va

⁵ <https://lex.uz/docs/-4892953>

⁶ <https://lex.uz/ru/docs/-5884584>

hosildorligiga sho‘r yuvish muddati va sug‘orish tartiblarining ta‘sirini aniqlash;
o‘rtacha sho‘rlangan tuproqlarda jo‘xori yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

Tadqiqot obyekti sifatida Sirdaryo viloyatining o‘rtacha sho‘rlangan, o‘tloqlashib borayotgan bo‘z tuproqlari, sho‘r yuvish muddatlari, sug‘orish tartiblari va jo‘xorining “Qorabosh” navi olingan.

Tadqiqot predmeti bo‘lib tuproqning agrokimyoviy, agrofizikaviy, suv-fizik xossalari, sug‘orish me‘yorlari va suv iste‘moli hamda jo‘xorining o‘sish-rivojlanishi, yashil massa hosildorligini o‘rganish hisoblanadi.

Tadqiqot o‘tkazish sharoiti va uslublari: O‘tkazilgan dala tajribalari jo‘xorining o‘sishi, rivojlanishi bo‘yicha olib borilgan fenologik kuzatuv va hisoblashlar “Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari”, “Методы агрохимических и агрофизических исследований в полевых хлопковых районах”, “Методическое руководство по расчёту дренажа орошаемых земель” qo‘llanmalari asosida, tadqiqot natijalarining matematik-statistik tahlili Microsoft Excel dasturi yordamida B.A.Dospexovning “Методика полевого опыта” qo‘llanmasi asosida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor Sirdaryo viloyatining o‘rtacha sho‘rlangan tuproqlarida jo‘xorining “Qorabosh” navini yetishtirishda maqbul sho‘r yuvish me‘yori ($2200 \text{ m}^3/\text{ga}$), sho‘r yuvish muddati (noyabr oyi), sug‘orish soni (4 marta), sug‘orish tartibi (CHDNsga nisbatan 70-80-70 %) va mavsumiy sug‘orish me‘yori ($2959 \text{ m}^3/\text{ga}$) aniqlangan;

noyabr oyida tuproq sho‘rini yuvish hisobiga quruq qoldiq 61-64 %, bikorbonat tuzi 47-51 % va xlor ioni 1,0 metrlik qatlamda (0-10 sm da 78,9 %, 0-50 sm da 24,3 % va 90-100 sm da 16,7 %,) 39,9-41,2 % foizgacha yuvilganligi natijasida sho‘r yuvish samaradorligi fevral oyida yuvilganga nisbatan 45 % yuqori bo‘lganligi aniqlangan;

o‘rtacha sho‘rlangan tuproqlar sharoitida sho‘r yuvish muddatini (noyabr oyida) to‘g‘ri belgilanishi natijasida urug‘ unib chiqish uchun qulay sharoit vujudga kelib, jo‘xorining hisobiy maydonda unib chiqqan ko‘chatlari soni 155,7 dona yoki 93,7 % ni tashkil qilib, nazoratga variantga nisbatan 14,8 % yuqori bo‘lganligi aniqlangan;

tuproq sho‘rini yuvish noyabr oyida o‘tkazilganda tuzning to‘liq yuvilishi hisobiga jo‘xorining o‘sish-rivojlanishi maqbul kechganligi va buning natijasida yashil massa hosildorligi nazoratga nisbatan 19,5 % yuqori bo‘lib, ushbu variantda rentabellik darajasi 116,9 % ni tashkil qilganligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tuproq sho‘rini yuvish noyabr oyida o‘tkazilganda tuproqdan tuzning to‘liq yuvilib chiqib ketishi natijasida jo‘xorining tuplanishi 92,0 % ni tashkil etgan bo‘lsa, sho‘r yuvish fevral oyida o‘tkazilganda esa, bu ko‘rsatkich 85,6 % ni tashkil etganligi aniqlangan;

tuproq sho‘rini noyabr oyida yuvish hisobiga jo‘xorining o‘rimga kelgan poyalar soni 463,7-482,7 ming dona/ga bo‘lganligi aniqlangan;

tuproq namligi CHDNS ga nisbatan 70-80-70 % da har bir sug‘orishda sug‘orish me‘yori $540-770 \text{ m}^3/\text{ga}$ bo‘lib, 4 marta sug‘orish hisobiga gektaridan $462-504 \text{ m}^3$ suv tejalganligi aniqlangan;

jo‘xoring eng yuqori yashil massa hosildorligi tuproq sho‘ri noyabr oyida yuvilgan, sug‘orish oldi CHDNS 70-80-70 % bo‘lgan, 4 marta sug‘orilgan 5-variantda kuzatilib, o‘rtacha 3 yilda 575,9 s/ga ni tashkil qilganligi va nazoratga nisbatan 98,0 s/ga yoki 20,5 % yuqori bo‘lganligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda dala usullaridan foydalangan holda variasion-statistik tahlildan o‘tkazilganligi hamda olingan nazariy natijalarni amaliy natijalarda tasdiqlanganligi, izlanishlarning zamonaviy uslub va vositalardan foydalangan holda o‘tkazilganligi, tadqiqot yo‘nalishlari asosida amaliy loyihalarning bajarilganligi, mahalliy va xorijiy tadqiqotlar bilan taqqoslanganligi, to‘plangan ma‘lumotlar yetakchi mutaxassislar tomonidan ijobiy baholanganligi, natijalarning ishlab chiqarishga joriy qilinganligi, xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlarda muhokama qilinganligi, ishlab chiqarishga tavsiyalar berilganligi va joriy etilganligi natijalarning ishonchliligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Sirdaryo viloyatining o‘rtacha sho‘rlangan tuproqlari sharoitida turli sho‘r yuvish muddati va sug‘orish tartiblarini tuproqning suv-fizik va agrofizikaviy xossalari, jo‘xoring o‘sishi, rivojlanishi, hosildorligi va iqtisodiy samaradorligiga ta‘sirining ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Sirdaryo viloyatining o‘rtacha sho‘rlangan tuproqlarida jo‘xori yetishtirishda maqbul sho‘r yuvish muddati (noyabr) va sug‘orish tartibi (70-80-70 %) to‘g‘ri belgilanishi hisobiga, yuqori ko‘chat qalinligi (98,0 %) va yashil massa hosildorligiga (575,9 s/ga) hamda gektaridan 462-504 m³/ga suv tejalishiga erishish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi: O‘rtacha sho‘rlangan tuproqlarda jo‘xori yetishtirishda sho‘r yuvish muddati va sug‘orish tartiblarini ishlab chiqish mavzusi bo‘yicha o‘tkazilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

“Sirdaryo viloyati sharoitida jo‘xori yetishtirish texnologiyasi” nomli tavsiyanoma chop etilgan va amaliyotga joriy etilgan (Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2023-yil 16-dekabrda 07/21-21-05/6426-son ma‘lumotnomasi). Natijada, ushbu tavsiyanoma sho‘rlangan tuproqlar sharoitida faoliyat olib borayotgan fermer xo‘jaliklari va agroklasterni, qishloq xo‘jaligi xodimlari va ilmiy tadqiqotchilarga qo‘llanma sifatida xizmat qilmoqda;

o‘rtacha sho‘rlangan tuproqlarda jo‘xori yetishtirishda maqbul sho‘r yuvish muddati va sug‘orish tartiblarini qo‘llash texnologiyasi 2022-2023 yillarda Sirdaryo viloyati Oq oltin tumani fermer xo‘jaliklarida jami 20,0 gektar maydonda joriy etilgan (Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2023-yil 16-dekabrda 07/21-21-05/6426-son ma‘lumotnomasi). Natijada, jo‘xoring “Qorabosh” navidan tuman bo‘yicha o‘rtacha 526,6 s/ga yashil massa hosili olingan.

o‘rtacha sho‘rlangan tuproqlarda sho‘r yuvish noyabr oyida o‘tkazilgan va sug‘orish oldi namligi CHDNS 70-80-70 % da jo‘xori yetishtirish texnologiyasi 2022-2023 yillarda Sirdaryo viloyati Oq oltin tumani “Bekzafarlik chorvadorlar” fermer xo‘jaligida 6,0 gektar, “Ummon oqqushlari” fermer xo‘jaligida 3,0 gektar, “Oq tulpor chorvachiligi” fermer xo‘jaligida 11,0 gektar maydonda joriy etilgan (Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2023-yil 16-dekabrda 07/21-21-05/6426-son ma‘lumotnomasi). Natijada, jo‘xoring “Qorabosh” navini amal davrida 4 marta

sug'orib "Bekzafarlik chorvadorlar" fermer xo'jaligida 538,5 s/ga, "Ummon oqqushlari" fermer xo'jaligida 518,5 s/ga va "Oq tulpor chorvachiligi" fermer xo'jaligida 522,9 s/ga yoki nazoratga (sho'r yuvilmagan va 5 marta sug'orilgan) nisbatan mos ravishda 99,5, 93,1 va 90,4 s/ga yuqori yashil massa hosili olishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dala tajribalari har yili Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi hamda Toshkent davlat agrar universiteti tomonidan tuzilgan maxsus aprobatsiya komissiyasi tomonidan ko'rikdan o'tkazilib, ijobiy baholangan. Ilmiy tadqiqot natijalari bo'yicha hisobotlar har yili universitetning ilmiy va uslubiy kengashlarida muhokama qilingan. Mazkur tadqiqot natijalari bo'yicha 2 marta respublika va 2 marta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda ma'ruzalar qilingan hamda muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarni asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola jumladan, mahalliyda 2 ta, xorijiyda 2 ta, xalqaro va respublika miqyosidagi anjumanlarda 5 ta maqola, shuningdek 1 ta tavsiyanoma nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 5 ta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 117 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida olib borilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati ilmiy asoslangan, tadqiqotlarning maqsadi, vazifalari hamda obyekt va predmetlari tavsiflangan, O'zbekiston fan va texnologiyasi taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Sho'rlangan tuproqlar sharoitida jo'xorini parvarishlashda, sho'r yuvish muddati va sug'orish tartiblarini o'rganish bo'yicha mahalliy va xorijiy ilmiy tadqiqot ishlarining tahlili"** deb nomlangan birinchi bobida mavzu bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari, xorijiy va mahalliy adabiyotlar sharhi batafsil yoritilgan. Shu bilan birga ilmiy manbalardan xulosalar qilinib, tadqiqotlar oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalar, shuningdek, Sho'rlangan tuproqlar sharoitida jo'xorini parvarishlashda sho'r yuvish muddati, me'yori va sug'orish tartiblari bo'yicha ilmiy izlanishlarni olib borish zarurligi keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Tadqiqot o'tkazish sharoiti va uslublari"** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot o'tkazilgan joyning tuproq-iqlim sharoitlari va tadqiqot o'tkazish uslublari yetarlicha bayon etilgan.

Dala va ishlab chiqarish tajribalari Sirdaryo viloyatining o'tloqilashib borayotgan bo'z tuproqlari sharoitida olib borilganligi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Ilmiy tadqiqot ishlarimiz olib borilgan xo‘jalik yerlari Sirdaryo viloyati shimol tomondan qo‘shni Qozog‘iston Respublikasi bilan, sharq tomondan Toshkent viloyati, g‘arb tomondan Jizzax viloyati, janub tomondan esa Tojikiston Respublikasi bilan chegaradosh.

Sirdaryo viloyatining qishloq xo‘jalik yer maydonlarida paxta, g‘alla, chorva ekinlari, bog‘dorchilik va boshqa qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirish imkoniyati yetarlicha sharoitga ega.

Sizot suvlari 2-3 m dan 3-5 m chuqurlikda aniqlangan. Past qatlamlıklarda sizot suvlari 1-2 m.dan, hatto 0,5-1 m chuqurlikdan aniqlangan, bu yerlarda o‘tloqi va botqoq-o‘tloqi tuproqlar shakllangan. Sho‘rlanish darajasiga ko‘ra, sizot suvlari asosan sulfatli, kationlar qismida esa kalsiy-magniyli, kam hollarda magniy-kalsiyli sho‘rlanish tiplaridan iborat.

Viloyatning tuproqlari asosan sug‘oriladigan och tusli bo‘z, bo‘z-o‘tloqi, o‘tloqi-bo‘z tuproqlardan iborat. Ular lyossimon qumoqlar bilan qoplangan prolyuvial-delyuvial yotqiziqlardan tog‘ oldi nishabli tekisliklarining quyi qismida tarqalgan.

Och tusli bo‘z tuproqlarda gumus va mineral ozuqa elementlar miqdori juda kam ta‘minlangan. Haydalma qatlamdagi gumus miqdori 0,6-0,8 %, ba‘zan 1% ni tashkil etadi. Yalpi azot miqdori ham juda kam. Mexanik tarkib bo‘yicha tuproqlar og‘ir va o‘rta qumoqli, ba‘zida quyi gorizontlarda qumloq va tosh shag‘al qatlamlari uchrab turadi. Tuproqlar o‘rtacha, ba‘zan kuchsiz darajada sho‘rlangan. Tuproqlarning singdirish sig‘imi 100 gram tuproqda 8-11 mg-ekv ga teng. Singdirilgan asoslar tarkibida kalsiy yetakchi o‘rinni egallaydi, sho‘rlangan tuproqlarda uning miqdori singdirilgan asoslar yig‘indisining 60-80 % ini tashkil etadi.

Gumus miqdoriga ko‘ra, tuproqlar kam va o‘rtacha ta‘minlangan. Uning miqdori haydalma qatlamda 0,8-1,2 % ni tashkil etadi, qatlamlarga qarab 0,3-0,4 % gacha kamayadi (4,0-5,0 % CO_2), pastga qarab uning miqdori 6,0-7,0 % gacha ortib boradi. Karbonatlar tarkibida kalsiy karbonat (CaCO_3) miqdori ustun.

Viloyatning sug‘oriladigan yerlarning 60 % dan ortiq sho‘rlangan. Sho‘rlanishni aniqlashdan maqsad, sug‘oriladigan yerlarda sho‘rlangan yerlarning konturlarini va maydonlarini aniqlashdir, chunki bu rayonlarda sho‘r yuvish ishlarini bajarish lozim bo‘ladi.

Tuzlar tarkibida o‘simliklar uchun zaharli bo‘lgan (Na_2CO_3 , NaHCO_3 , Na_2SO_4 , NaCl , MgCl_2 , MgSO_4 , $\text{Mg}(\text{HCO}_3)_2$) tuzlar miqdori quruq qoldiq bo‘yicha 0,3, 0,4 %, xlor ioni bo‘yicha 0,01 % bo‘lganda va sho‘rlanish tiplari anionlar bo‘yicha xlorli va sulfat xlorli bo‘lganda madaniy o‘simliklar ko‘proq zaharlanadi va ularning o‘sishi, rivojlanish fazalari buziladi, xosildorligi o‘rtacha 40, 50 % gacha kamayadi.

Tuproqdagi tuzlar tarkibida ko‘proq kam zaharli (CaCl_2 , CaSO_4 , CaCO_3 , $\text{Ca}(\text{HCO}_3)_2$) tuzlar bo‘lgan yerlarda ya‘ni xlor sulfatli va sulfitli.

Tadqiqot olib borilayotgan mazkur hudud iqlimining keskin kontinentalligi, havosining juda quruqligi, yog‘ingarchilikning mavsumiyliigi, sovuqsiz davrning davomiyligi, tuproq ustidan namlikni bug‘lanishning yuqoriligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga bahorning jadal o‘tishi va yozning kutilmaganda kirib kelishi bilan xarakterlanadi. Sutkalik o‘rtacha harorat 10°C dan ortiq kunlar soni 222–234 ga, musbat haroratlar yig‘indisi 4336–4748 $^\circ\text{C}$ ga, samarali (10°C dan yuqori) haroratlar

yig'indisi 2219–2276 °C ga teng. Bahorgi sovuq urishining o'rtacha sanasi 23-29 martga, kuzgi birinchi sovuq urishi esa 23-27 oktabrga to'g'ri keladi. Eng sovuq davr yanvar oyida kuzatiladi: o'rtacha sutkalik harorat 0 °C dan 31 °C gacha o'zgarib turadi. Qorli kunlarning davomiyligi qisqa 26–32 kunni tashkil etadi. Eng issiq davr iyul oyi bo'lib, harorat 41-44 °C gacha yetib boradi.

Yillik yog'ingarchilik (267-367 mm) ning eng ko'p qismi qish-bahor oylariga (atigi 5-8 % igina yoz oylariga) to'g'ri keladi. Kuz-qish va bahor oylarida tushadigan yog'in miqdori tuproqda uning namlik zahirasi yaqin miqdorda nam to'plash imkonini beradi. Mart va aprel oylarida yog'in miqdori eng ko'p, avgust oyida esa eng kam ko'rsatkichni tashkil etadi. Noo'suv davridagi bug'lanishning miqdori 211-331 mm.ni, o'suv davrida esa 878—1089 mm.ni tashkil etadi.

Sirdaryo meteostansiyasi bo'yicha ko'p yillik o'rtacha meteorologik ma'lumotlar va 2019-2021 yillarning ob-havo sharoitlari bo'yicha ma'lumotlariga ko'ra, tajriba o'tkazilgan yillari havoning harorati ko'p yillik o'rtacha miqdor (14,8 °C) dan biroz yuqori – 15,0–15,9 °C ni tashkil qildi. Bunda yog'ingarchilik miqdori 267 mm.ni aprel, may va iyun oylarida oylik o'rtacha sutkalik harorat ko'p yillik o'rtachaga nisbatan 1,8–4,6 °C yuqori bo'ldi.

2019-2020 mavsum yilida kuz, qish va bahor oylarida havoning nisbiy namligi ko'p yillik ko'rsatkichlarga nisbatan 2,8 % yuqori va aksincha, 2020-2021–mavsum yillarida 2,8-3,2 % kam bo'ldi. Mazkur tajriba olib borilgan 2019 va 2021 yillar nam bilan kam darajada ta'minlangan yillar hisoblanadi: yil davomida tegishlicha 216,9-317,8 mm yog'in tushdi. Yog'ingarchilik bo'yicha ma'lumotlarni mavsum yillari bo'yicha tahlil etadigan bo'lsak, eng ko'p yog'ingarchilik 2020 yilida kuzatildi, qolgan 2019 va 2021-yillarda yog'ingarchilik miqdori kam bo'ldi.

Tadqiqotlar 2019-2021 yillari Sirdaryo viloyatining Oq oltin tumani “Bekzafarlik chorvadorlar” fermer xo'jaligida, o'rtacha sho'rlangan, o'tloqilashib borayotgan bo'z tuproqlar sharoitida jo'xorining “Qorabosh” navida olib borildi.

Dala tajribalari quyidagi tizimlarda olib borildi.

1. Sho'r yuvilmagan (nazorat), CHDNS ga nisbatan tuproq namligi, %. 70-80-75
2. Sho'r yuvilmagan (nazorat), CHDNS ga nisbatan,tuproq namligi, %. 70-80-70
3. Sho'r yuvilmagan (nazorat), CHDNS ga nisbatan,tuproq namligi, %. 70-70-70
4. Sho'r yuvilgan (noyabrda), CHDNS ga nisbatan,tuproq namligi, %. 70-80-75
5. Sho'r yuvilgan (noyabrda), CHDNS ga nisbatan,tuproq namligi, %. 70-80-70
6. Sho'r yuvilgan (noyabrda), CHDNS ga nisbatan,tuproq namligi, %. 70-70-70
7. Sho'r yuvilgan (fevralda), CHDNS ga nisbatan,tuproq namligi, %. 70-80-75
8. Sho'ryuvilgan (fevralda), CHDNSganisbatan,tuproq namligi, %. 70-80-70
9. Sho'r yuvilgan (fevralda), CHDNS ga nisbatan, tuproq namligi, %. 70-70-70

Dissertatsiyaning “**Sho'r yuvish va sug'orish tartiblarini tuproqning suv-fizik va agrokimyoviy xossalari ta'siri**” deb nomlangan uchinchi bobida sho'r yuvish muddatlari va sug'orish tartiblarini tuproqning suv-fizik hamda agrokimyoviy xossalari ta'siri haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Jumladan, tuprog'ining hajm massasi mavsum boshida tuproq sho'ri yuvilmagan nazorat variantida 0-70 sm.da 1,37 g/sm³, noyabr oyida tuproq sho'ri yuvilgan variantda 0-70 sm.da 1,35 g/sm³, tuproq sho'ri fevral oyida yuvilgan variantda 0-70 sm.da 1,36 g/sm³ ni tashkil qilgan bo'lsa, mavsum oxirida mos ravishda dastlabki


ko'rsatkichga nisbatan 0,03-0,04 g/sm³ oshib nazorat variantida 1,39-1,41 g/sm³, noyabrda oyida sho'r yuvilganda 1,36-1,38 g/sm³, fevral oyida sho'r yuvilganda 1,37-1,39 g/sm³ ni tashkil etdi.

1-jadval

Sho'r yuvish muddatlari va sug'orish tartiblarini tuproq hajm massasining o'zgarishiga ta'siri, g/sm³ (2019-2020 yy.)

№	Variantlar	Sug'orishdan oldingi tuproq namligi CHDNS ga nisbatan, %	Amal davri boshida				Amal davri oxirida			
			0-30	30-50	50-70	0-70	0-30	30-50	50-70	0-70
1.	Sho'r yuvilmagan (nazorat)	70-80-75	1,36	1,37	1,38	1,37	1,38	1,41	1,42	1,41
2.		70-80-70	1,36	1,37	1,38	1,37	1,38	1,40	1,41	1,40
3.		70-70-70	1,36	1,37	1,38	1,37	1,38	1,39	1,40	1,39
4.	Sho'ri yuvilgan (noyabr oyida)	70-80-75	1,34	1,35	1,36	1,35	1,36	1,38	1,39	1,38
5.		70-80-70	1,34	1,35	1,36	1,35	1,36	1,37	1,38	1,37
6.		70-70-70	1,34	1,35	1,36	1,35	1,35	1,36	1,37	1,36
7.	Sho'ri yuvilgan (fevral oyida)	70-80-75	1,35	1,36	1,37	1,36	1,38	1,39	1,40	1,39
8.		70-80-70	1,35	1,36	1,37	1,36	1,37	1,38	1,39	1,38
9.		70-70-70	1,35	1,36	1,37	1,36	1,36	1,37	1,38	1,37


Bunga asosiy sabab tuproq sho'rini yuvilmasiligi va ushbu tuproq sharoitida sug'orish sonini 5-martagacha ortib borishi deb hisoblaymiz. Tuproq sho'ri yuvilmagan 2,3-variantlarda ham hajm massasi dastlabki va amal davri oxirida nazoratga yaqin bo'lgan. Umuman olganda tajribani dastlabki davrida 4,5, 6,7, 8, 9-variantlarda tuproqning hajm massasi 0-30 sm.qatlamda 1,34 g/sm³ bo'lgan bo'lsa, 30-50 sm.lik qatlamda 1,35 g/sm³, 50-70 sm. qatlamda 1,36 g/sm³ va nihoyat 0-70 sm.lik qatlamda o'rtacha 1,35 g/sm³ chegarasida bo'ldi (1-jadval).



1-rasm. Sho'r yuvish muddatlari va sug'orish tartiblarini tuproq g'ovakligiga ta'siri, % (2019-2020 yy.)

Tadqiqotda nazorat variantida sug'orish sonini 3 tadan 5 tagacha ortib borishi tuproq hajm massasini ortishi bilan uning g'ovakligini 2,5 % ga kamayishiga, noyabr oyida tuproq sho'ri yuvilgan variantda sug'orish sonini 3 tadan 5 tagacha ortib borishi hisobiga 2,7 % ga va nihoyat tuproq sho'rini fevral oyida yuvish hamda variantlar bo'yicha sug'orishlarni 3 tadan 5 tagacha ortib borishi uning g'ovakligini 3,7 % gacha kamayishiga olib keldi, (1-rasm).

Tuproqning suv o'tkazuvchanligini nazorat variantida 156-160 m³/ga.ga pasayib ketishiga asosiy sabab ushbu variantda tuproq sho'ri o'z vaqtida yuvilmasligi. Tuproq sho'rini yuvilmasligi yoki uni kechki (7,8,9-var) muddatlarda yuvilishi hisobiga suvni kapillyarlar orqali yuqoriga harakatini tezlashib, sizot suvlarini sathini ko'tarilib ketishi bo'lsa, ikkinchidan tuproqdagi tuzni suvda erishi bilan tuzli eritma hosil qilishi va bu eritmaning konsentratsiyasi suvning konsentratsiyasidan katta bo'lgani uchun suvni pastki qatlamlarga o'tkazmay qo'yishi hisoblanadi (2-rasm).



2-rasm. Sho'r yuvish muddatlari va sug'orish tartiblarini tuproq suv o'takazuvchanligiga ta'siri (m³/ga), 2019-2020 y.

Tajriba dalasida vegetatsiya boshida olib borilgan agrokimyoviy tahlillar shuni ko'rsatdiki, barcha o'rganilgan variantlarda oziq moddalarining umumiy miqdorigumus, azot, fosfor va ularning harakatchan shakllari, N-NO₃, P₂O₅, K₂O bo'yicha katta farq kuzatilmadi. Lekin shuni ta'kidlash kerakki, tajriba dalasida hali sug'orish ishlari boshlanmagan bo'lsada, ammo tuproq sho'rini yuvish natijasida oziq moddalaining u yoki bu miqdori sezilarsiz ravishda kamayishi qayd etildi. Ma'lumki, tuproq sho'rini yuvishda ishlatilgan suv o'zi bilan tuzni yuvib olib ketishi davomida ma'lum miqdorda oziq moddalarini ham tuproqdan yuvib chiqarib yuboradi.

Amal davri oxirida tajribaning, 1-nazorat variantida tuproqning sho'ri yuvilmagan bir vaqtda vegetatsiya davrida 5- marta sug'orilish hisobiga gumus 0-30 sm qatlamda 0,869 %, azot, 0,064 %, fosfor 0,144 % va ularning harakatchan shakllari, N-NO₃- 26,1, P₂O₅,-28,9, va K₂O-221 mg/kg. bo'lgan. Tuproqning 30-50

sm qatlamda 0,843 %, azot, 0,057 %. fosfor 0,138 % va ularning harakatchan shakllari, N-NO₃-20,5, P₂O₅,-24,0 va K₂O-216 mg/kg. bo'lgan.


Tajribaning 4- variantida vegetatsiya davrida sug'orishni 5 marta o'tkazish hisobiga gumus 0-30 sm qatlamda 0,847 %, azot, 0,053 %. fosfor 0,126 % va ularning harakatchan shakllari, N-NO₃-17,2, P₂O₅,-30,3 va K₂O-233 mg/kg bo'lgan bo'lsa 30-50 sm qatlamda 0,802 %, azot 0,045 %. fosfor 0,120 % va ularning harakatchan shakllari, N-NO₃-15,6, P₂O₅-26,5 va K₂O-224 mg/kg bo'lgan. Tajribaning 6-variantida vegetasion sug'orishlarni 3-tagacha tushishi hisobiga oziq moddalarning umumiy va harakatchan formasining sarfi sezilarsiz kamayganligi qayd etildi. Yuqorida olingan ma'lumotlarga mos ravishda tajribaning 7, 8, 9-variantlarida ham vegetatsiya davrida sug'orishlarni 5 martadan 3-martagacha tushishi hisobiga oziq moddalarning umumiy va harakatchan formasining sarfi yuqoridagiga mos ravishda sezilarsiz kamayganligi qayd etildi. Bunda 7-variantda gumus 0-30 sm qatlamda 0,882 % azot 0,058 %. fosfor 0,135 % va ularning harakatchan shakllari, N-NO₃-18,1, P₂O₅-32,1 va K₂O-230 mg/kg bo'lgan bo'lsa 30-50 sm qatlamda 0,786 %, azot,0,054 %. fosfor 0,128 % va ularning harakatchan shakllari, N-NO₃-17,8, P₂O₅-28,7 va K₂O-221 mg/kg bo'lgan. Tajribaning 9-variantida vegetasion sug'orishlarni 3-tagacha tushishi hisobiga oziq moddalarning umumiy va harakatchan formasini 0-30 sm.da. gumus 0,865 %, azot 0,065 %. fosfor 0,140 % va ularning harakatchan shakllari, N-NO₃-27,3, P₂O₅-32,1 va K₂O-244 mg/kg. bo'lgan bo'lsa 30-50 sm qatlamda 0,800 %, azot 0,060 %. fosfor 0,131 % va ularning harakatchan shakllari, N-NO₃-17,2, P₂O₅-28,7 va K₂O-238 mg/kg bo'lgan. Ushbu oziq moddalar 3-marta sug'orishda 5-marta sug'orishgacha oshishi hisobiga gumus-0,145-0,157 % gacha azot 0,04-0,11 % gacha va fosfor 0,012-0,36 % gacha kamayganligi qayd etildi.

“Sho'rlangan tuproqlar sharoitida jo'xori yetishtirishda maqbul sho'r yuvish me'yori va sug'orish tartibi hamda umumiy suv sarfi” to'rtinchi bobida tuproqni sho'rni yuvish, sug'orishlardan oldingi tuproqning namligi va chegaraviy dala nam sig'imi, sug'orish muddati, soni va sug'orishlar orasidagi davr, bir gallik va mavsumiy sug'orish me'yorlari, umumiy suv sarfi va suv balansiga tegishli ma'lumotlar keltirilgan.

Tuproq sho'rini noyabr oyida yuvishda, tuzning to'liq yuvilishiga erishishning muhim omili, bu davrda hali tuproqlar va sho'r yuvishga ishlatiladigan suv sovib ulgurmagan bo'lib, sizot suvlar sathi vegetatsiya oxiriga borib o'zining eng chuqur satihiga yaqinlashadi. Jumladan, sho'r yuvilishi hisobiga quruq qoldiq-61%, bikorbonat tuzi- 47 % va xlor ioni- 39,9-41,2 % foizgacha yuvilgan bo'lsa, fevral oyida sho'r yuvish hisobiga quruq qoldiq-40%, bikorbonat ioni -34% va xlor ioni 24% foizgacha yuvilgan. Tuproqning qayta sho'rlanish jarayoni kuzatilmadi (3-rasm).

Jo'xorini navbatdagi sug'orishlardan oldin tuproq namligi variantlar bo'yicha CHDNS ga nisbatan 70-80-75 %, 70-80-70 % va 70-70-70 % ushlab turildi va navbatdagi sug'orishlar tuproq namligi shu me'yorga yetib kelishi bilan boshlab yuborildi. Bunda 1, 4, 7 variantlarda tuproq namligi CHDNS ga nisbatan 70-80-75 % ni tashkil qildi. 2, 5, 8-variantlarda CHDNS ga nisbatan 70-80-70 % ni tashkil qildi va nihoyat 3, 6, 9 variantlarda tuproq namligi CHDNS ga nisbatan 70-70-70 % ni tashkil qildi. O'rganilgan barcha variantlarda navbatdagi sug'orishlardan oldin tuproq

namligi va chegaraviy dala nam sig'imi orasida korrelyativ bog'liqlik mavjud bo'lib, ular orasidagi farq vegetatsiya davomida 0,1-1,0% atrofida bo'ldi. Demak, tajriba davomida navbatdagi sug'orishlarda CHDNS dan og'ish katta bo'lmadi.



3-rasm. Sho'r yuvishda oldin va keyin tuproqdagi quruq qoldiq va tuz ionlarining miqdori (o'rtacha 1 m qatlamda) 2019-2020 yy


Nazorat variantida 1-sug'orish 4-iyunga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2-sug'orish 25-iyunga, 3-sug'orish 7-iyulga, va 4-sug'orish 25-iyulga va nihoyat 5-sug'orish 10-avgustga to'g'ri keldi. Navbatdagi sug'orishlar orasidagi davr 1-variantda 21-22 kuni, CHDNS ga nisbatan sug'orish oldi tuproq namligi 80% bo'lgan davrda 12-13 kuni tashkil qildi.

Tuproq sho'ri noyabr oyida yuvilgan 4-variantda 2-sug'orish 24-iyunda, 3-sug'orish 9-iyulda, to'rtinchi sug'orish 28-iyulda va 5-sug'orish 12-avgustda o'tkazildi. Navbatdagi sug'orishlar orasidagi davr 4-variantda CHDNS ga nisbatan sug'orish oldi tuproq namligi 70% bo'lgan davrda 19-20 kun CHDNS ga nisbatan sug'orish oldi tuproq namligi 80 % bo'lgan davrda 14-15 kuni tashkil qildi. Shuningdek, 5-variantda, 2-sug'orish 25 iyunda, 3-sug'orish 10-iyulda va to'rtinchi sug'orish 2-avgustda o'tkazildi. Navbatdagi sug'orishlar orasida davr tuproq namligi CHDNS ga nisbatan 70 % bo'lganda 19-22 kun bo'lgan bo'lsa, tuproq namligi CHDNS ga nisbatan 80 % bo'lganda 14-15 kuni tashkil qildi. 6-variantda ham jo'xorini 1-sug'orish 5 iyunga to'g'ri kelgan bo'lsa, qolgan sug'orishlar, jumladan, 2-sug'orish 27-iyulda, va nihoyat 3-sug'orish 21-iyulda o'tkazildi. Navbatdagi sug'orishlar orasidagi davr to'rtinchi variantda 24-25 kuni tashkil qildi.

Tuproq sho'ri fevral oyida yuvilgan 7-variantda, 2-sug'orish 25 iyunda, 3-sug'orish 10-iyulda, to'rtinchi sug'orish-29-iyulda va 5-sug'orish- 14-avgustda o'tkazildi. Navbatdagi sug'orishlar orasidagi davr 7- variantda CHDNS ga nisbatan sug'orish oldi tuproq namligi 70 % bo'lgan davrda 19-20 kun CHDNS ga nisbatan sug'orish oldi tuproq namligi 80% bo'lgan davrda 14- 15 kuni tashkil qildi. 8 -

variantda, 2-sugʻorish 27 iyunda, 3-sugʻorish 11-iyulda, toʻrtinchi sugʻorish 3-iyulda oʻtkazildi. Navbatdagi sugʻorishlar orasidagi davr 8-variantda CHDNS ga nisbatan sugʻorish oldi tuproq namligi 70 % boʻlgan davrda 20-21 kun CHDNS ga nisbatan sugʻorish oldi tuproq namligi 80 % boʻlgan davrda 14-15 kunni tashkil qildi. 9-variantda 2-sugʻorish 28-iyunda, 3-sugʻorish 23-iyulda oʻtkazildi. Navbatdagi sugʻorishlar orasidagi davr 9- variantda 24-26 kunni tashkil qildi.

